O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"Tasdiqlayman"
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori prof. Sh. S. Sharipov
2022 y.

# PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA FANINING O'QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – | Ta'lim |
| **Ta'lim sohasi:** | 110000 – | Ta'lim |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70110501 - | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) |

| Fan/modul kodi 351PKM04 | O'quv yili 2022-2023 | Semestr 1 | Kreditlar 6 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 6 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Pedagogik konfliktologiya | 90 | 90 | 180 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanning asosiy **maqsadi**- bo'lajak pedagoglarni pedagogik jarayonda yuzaga keladigan konfliktlar, ularning oldini olish yo'llari bilan tanishtirish.
Fanning **vazifasi** – bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik konfliktlarnig nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; pedagogik konfliktlarning oldini olish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish; pedagogik konfliktlarni hal etish strategiyasi va usullarini qo'llay olish malakasini hosil qilishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**1-Mavzu: Pedagogik konfliktologiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi. (2 soat)**
Konfliktologiya yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri ekanligi.

**2-Mavzu: Pedagogik konfliktologiyaning fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanishi. (2 soat)**
Pedagogik konfliktologiya fani ixtisoslik fani hisoblanib, uning rivojlanishi qator pedagogik, xususan pedagogika, pedagogika nazariyasi, oila pedagogikasi, umumiy psixologiya, psixologik konfliktologiya, pedagogika tarixi, falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan yakin aloqada.

**3-4-Mavzu: Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar. (4 soat)**
Konflikt har bir inson hayotining ajralmas tarkibi hisoblanadi. Inson ilk bolalik davridayoq turli nizolar va ziddiyatlar bilan o'zi xohlamagan holda to'qnash keladi. Konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida **"konfliktogen"**lar juda muhim rol o'ynaydi. Konfliktogen –konfliktga imkon beruvchi , konflikt uchun sharoit yaratib beruvchi deb tarjima qilinadi.

**5-Mavzu: Nizo, uning mazmuni va turlari. (2 soat)** Nizoning turlari ; nizolar oldini oluvchi xabarlar; nizolar oldini oluvchi xabarlar; nizolarni hal qilishga yonashishlar; V.M . Afankovaning nizo haqidai fikrlari nizolarning sub'ektiv xususiyatlari va pedagogik –psixologik asoslari; nizoli vaziyatning ob'ektiv mazmuni; pedagogik – psixologik konfliktologiyaning nazariy tahlil qilishdagi dastlabki xulosalar; nizoli vaziyat ishtirokchilarning turli himoyalanish shakllari; nizoning rivojlanishi borasidagi bosqichlari haqidagi bilim va tasavvurlarini oshirish.



**6-mavzu: Konflikt signallari. (2 soat)** Konflikt signallari konfliktning to'la namoyon bo'lishidan oldin tomonlar o'rtasidagi odatdagi to'g'ri munosabatlar o'rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, g'ayrlik oqibatida vujudga kelayotganligini namoyon etadi.Konflikt signallariga bee'tiborlik uning kelgusida rivojlanib ketishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, konflikt signallarini bilish va ularga e'tiborli munosabat talab qilinadi. Konflikt signallariga inqiroz, tomonlar o'rtasidagi tanglik, tushunmovchilik, hasadgo'ylik, insidentlar va diskomfort kiradi hamda ular haqida ma'lumotlar beriladi.

**7-8-mavzu: Agressiya va zo'ravonlik haqida tushuncha. Uning mohiyati. (4 soat)**
Agressiya va zo'ruvonlik o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi oqibati sifatida zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Lotin tilida agressiya ''hujum qilish" ma'nosini anglatadi. Agressiya inson xarakterida tug'ma va tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o'z emotsiyalarini tuta bilmasligi, ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

**9-mavzu: Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr. (2 soat)** G'azab, jahl, qahr kabi psixologik holatlar aynan konfliktli vaziyatlarda ko'plab vujudga kelishi uchun katta imkon bo'ladi. Tomonlar to'qnashuvining psixologik-ruhiy natijasi, o'zga tomonga nisbatan qo'qqis shakllangan his-tuyg'u o'zini muhofaza qilish yoki o'zga odamga bosim va ta'ziq o'tkazish usuli sifatida g'azab, jahl, qahr konflikt vaziyatlarning odatdagi hamroxi i ekanligi haqida ma'lumot berish.

**10-mavzu: O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarning o'ziga xos xususiyatlari. (2 soat)** Ta'lim va tarbiya ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lganligi sababli o'quvchi va o'qituvchilar orasida ayrim kelishmovchiliklar sodir bo'lib turadi. Kelishmovchiliklarning oldi olinmasa nizoga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilish ko'pchilik pedagog va psixolog tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni, ya'ni konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olish yo'llari.

**11-mavzu: Konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli. (2 soat)** Oiladagi tarbiya; oiladagi tarbiyaning funksiyalari; oiladagi noto'g'ri tarbiyaning asosiy turlari; oilada bola xulqining buzilishi, ota-onaning noto'g'ri tarbiyasining natijasi; oiladagi tarbiya jarayonining pedagogik konfliktologiya bilan aloqasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**12-mavzu: Jamoadagi konflikt va uni yechimga olib kelish yo'llari. (2 soat)** Jamoada mos kelishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning asosiy guruhlari; hodimlarning janjalkashliklariga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik hususiyat turlari; nizolar sabablari; nizolarni hal qilish usullari; direktorlarning o'z ilmiy mudirlari bilan nizolarga borish hollari; o'qituvchi o'rtasida, guruh ichida, shaxslararo nizolarning oldini olish yoshlari borasidagi bilimlarni kengaytirish.

**13-mavzu: Pedagogik konfliktologiyada tana zaboni. (2 soat)** Tana zaboni - sizning qanday yurishingiz, turishingiz, qanday ovozda so'zlashishingiz, qanday kiyinishingiz, sizning imo-ishoralaringiz, mimikangiz, umuman olganda qandaydir ma'noga ega bo'lgan olamda axborot tarqatish va qabul qilishida ishtirok etgan tana harakatlaringiz majmuasi ekanligi haqida ma'lumot berish.

**14-mavzu: Muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari. (2 soat)** Muomala madaniyati - o'zga insonga bo'lgan munosabat madaniyati bilan belgilanishi. Ichki madaniyatga ega bo'lgan odamgina turli vaziyatlarda har qanday boshqa insonga nisbatan doimiy to'g'ri, samimiy va aniq munosabat ko'rsata oladi. Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat ko'rsatilishini talab etadi. Muloqot madaniyati insondan o'z ustida muntazam ish olib borishni talab etishi va muloqot madaniyati o'z-o'zidan vujudga kelib qolmasligi haqida ma'lumot berish.

**15-mavzu: O'zgani anglash (eshitish) va o'zini anglatish qoidalari. (2 soat)** Konflikt yechimda boshqa bir insonni eshitish hamda o'z fikrini o'tkazishni tenglik sharoitida olib borishni muhim talablardan biriga aylanadi. Konflikt yechimida o'zgani eshitish va o'zini anglatish qonuniyatlariga rioya etish yo'llari.

**16 –mavzu: Konfliktlarni boshqarish tartiblari va usullari. (2 soat)** Konflikt yechimini topish uchun konfliktni boshqarishning o'ziga xos usullarini egallash. Konfliktlarni boshqarish haqida ma'lumotlarni bilish va ularni qo'llay olish.

**17 – mavzu: Konfliktologiyada konfliktlarni boshqarish usullari. (2 soat)** Konfliktlarni boshqarishning besh asosiy usuli haqida ma'lumot berish.



**18-mavzu: Konfliktlarni bartaraf etishda "Men-tasdiqlar" (Men-murojaat) usuli. (2 soat)** Konfliktli vaziyat yuzaga kelgan emotsional tang holatdan, ko'pchilik aybni boshqalarga yuklash, "ular meni tushunmadi" qabilida ish tutish, o'zgalar so'zlari va harakatlariga osilish, kek saqlash, o'zini oqlash kabi amallar orqali chiqishga urinadi. Juda ko'p hollarda kichkina, oddiygina konflikt ham eng yaqin bo'lgan do'stlarni, hamkasblarni shu bilan bir qatorda oiladagi yaqinlarni bir-biriga qarshi qilib qo'yadi.

**19-mavzu: Konfliktda "G'olib – G'olib" strategiyasi va uning amal qilish tamoyillari. (2 soat)** Konfliktlar yechimida aynan mana shunday yo'l ishlab chiqilgan, ya'ni ziddiyatli vaziyatdagi har ikki tomon ham o'zini g'olib. - deb anglashi mumkinligi konfliktlar yechimining o'ziga xos yutuqlaridan hisoblanadi. Konfliktli vaziyatlarda tomonlar qarama-qarshiligi natijasida har ikki tomon yutib chiqishi, bir tomon yutib chiqishi yoki har ikki tomon ham yutqazishi mumkin. Demak, ziddiyatning qanday yechim topganligiga qarab, tomonlar vaziyatlari turlicha bo'lishi mumkin.

**20-mavzu: Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari. (2 soat)** "Adolatparvarlik mezonlar" bizga qo'l keladi, hamda konfliktni zo'ravonliksiz va kuch ishlatmasdan muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadi. "Adolatparvarlik mezonlari"ni qo'llash, hech kim mag'lub emasligini, balki barcha g'olib bo'lib qolishini isbotlaydi. Ziddiyailar yechimida adolatparvarlik mezonlaridan sanalgan – e'tiborni muammoga qarata olish, muammoda shaxslarni ayblamaslik, muammoni aniqlash, muammo mazmunida fikrni jamlash, shaxsga emas, muammoga xujum qilish. o'zgani tinglashga tayyorlik va faol tinglash malakalarini qo'llash, birovning xis-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish, o'z va'dalari va amallariga mas'uliyatli bo'lish kabi qoidalariga rioya etish.

**21-mavzu: Pedagogik konfliktologiyada tolerantlik tushunchasi. (2 soat)** Dunyoviy davlatchilik asoslarining bosh tamoyillaridan biri tolerantlik hisoblanadi. Shu bois XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning barchasini o'zaro hamkorlik va bir- birini qabul qilish, tenglik va o'zaro hurmat asosida yashash jarayonlarini anglatadi.

**22-mavzu: Mediasiya qoidalari. (2 soat)** Mediasiya - vositachilikning asosiy qoidalari. Mediasiya (vositachilikning) besh asosiy ustunliklari haqida ma'lumot berish.

## III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida magistrlarda pedagogik konfliktologiyaga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar pedagogikaga oid darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi. U o'quv fani bo'yicha dasturda belgilangan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida muhim, bir qadar murakkab masalalarning muhokamasini tashkil etish maqsadida o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlari chog'ida talabalarning nazariy bilimlari boyiydi, ularda mustaqil fikrlash, axborotlarni izlash va tahlil qilish, bahs-munozaraga kirishish, muammo yuzasidan to'g'ri xulosalarga kelish, o'z fikrini ilgari surish va uni himoya qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Seminar mashg'ulotida talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimini real hayotda qo'llashga o'rgatiladi. Shu sababli seminar mashg'ulotlari talabalarni ta'lim jarayonida faol qatnashishga jalb etish imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Mashg'ulot maqsadiga erishish uni tashkil etish jarayonida qator vazifalar hal etilishi lozim. Ular seminar mashg'ulotining funksiyalarida o'z ifodasini topadi. O'quv mashg'ulotining bu shakli muayyan funksiyalarni bajaradi: nazariy ma'lumotlarni tartibga solish va mustahkamlash; mavjud bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; amaliy hamda tadqiqot ko'nikma, malakalarni rivojlantirish; talabalarning o'quv-bilish faoliyatini nazorat qilish

### Seminar mashg'ulotlarining mavzulari va rejalari:

**1-mavzu:Pedagogik konfliktologiyaning mohiyati, ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi. (2 soat)**

Reja:

1. Pedagogik konfliktologiyaning mohiyati, ob'ekti, predmeti haqida pedagogik adabiyotlar tahlili.
2. Pedagogik konfliktologiyaning maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi haqida talabalarning referati muhokamasi

**2-mavzu: Pedagogik konfliktologiyaning fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanishi. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogik konfliktologiyaning fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanishi mavzusida talabalar o'rtasida bahs-munozara o'tkazish.

**3-mavzu:Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar. (2 soat)**

**Reja:**

1.Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, amaliy jarayonlar, internet manbalari bilan ishlash.



**4-mavzu: Nizo, uning mazmuni va turlari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Ijtimoiy tarmoqlarida (**kun.uz., xushnudbek.uz., davletovuz** kabi) nizo, uning mazmuni va turlariga oid ta'limda uchraydigan holatlar haqidagi xabarlarni o'rganish, tanqididy tahlil asosida bahs-munozara uyushtirish.

**5-mavzu: Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr. (2 soat)**

**Reja:**

1.O'zbek va jahon adabiyoti durdonalaridan "Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr" mavzusiga doir badiiy qahramonlar taqdiri haqida esse tayyorlash va muhokama qilish.

**6-mavzu:Konflikt signallari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Konflikt signallari mavzusiga bog'liq ilmiy adabiyotlarni o'rganib talabalar o'rtasida bahs-munozara uyushtirish.

**7-mavzu: Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlar. (2 soat)**

**Reja:**

1."Temur tuzuklari" asarini o'rganish va "Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari" mavzusiga bog'liq jihatlarini o'rganish.

**8-mavzu: Konfliktlarni boshqarish tartiblari va usullari. (2 soat)**

**Reja:**

1."Konfliktlarni boshqarish tartiblari va usullari" mavzusida magistrlarning pedagogik faoliyatida uchragan konfliktli vaziyatlar haqida referat tayyorlash va muhokama qilish.

**9-mavzu: Konfliktlarni bartaraf etishda "Men-tasdiqlar" usuli. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogika sohasiga oid ilmiy jurnallar (xorijiy va respublika)da "Konfliktlarni bartaraf etishda "Men-tasdiqlar" usuli" mavzusi va unga yaqin mavzularda chop etilgan maqolalarni qiyosiy o'rganish va muhokama o'tkazish.

**10-mavzu: Konfliktda "G'olib -G'olib" strategiyasi. (2 soat)**

**Reja:**

1. Konfliktda "G'olib -G'olib" strategiyasi mavzusida ilmiy adabiyotlarni o'rganish va muhokama qilish.

**11-mavzu:Muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari. (2 soat)**

**Reja:**

1.Alisher Navoiy asarlarida muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari mavzusining aks etishi mavzusida referat tayyorlash.

**12-mavzu: O'zgani anglash (eshitish) va o'zini anglatishi qoidalari. (2 soat)**

**Reja:**

1.O'zgani anglash (eshitish) va o'zini anglatishi qoidalarining nazariy ma'lumotlarini o'rganish va bahs-munozara o'tkazish.

**13-mavzu:Pedagogik konfliktologiyada tana zaboni. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogik konfliktologiyada tana zaboni mavzusida referat tayyorlash va tanqidiy tahlil o'tkazish.

**14-mavzu:Pedagogik konfliktologiyada agressiya va zo'ravonlik. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogik konfliktologiyada agressiya va zo'ravonlik mavzusini o'rganish uchun psixologik manbalarni tahlil qilish va bahs-munozara o'tkazish.

**15-mavzu:Pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish yo'llari. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish yo'llari mavzusi bilan bog'liq pedagoglar faoliyatida uchraydigan real voqealardan musillar keltishsi va bahs-munozara o'tkazish.

**16-mavzu:Pedagogik jamoada nizolar. (2 soat)**

**Reja:**

1. Pedagogik jamoada nizolarni bartaraf etish yo'llari yuzasidan bahs-munozara o'tkazish.

**17-mavzu:Pedagogik konfliktologiyada tolerantlik tushunchasi. (2 soat)**

**Reja:**

1.Pedagogik konfliktologiyada tolerantlik tushunchasini chuqur o'rganish uchun pedagogika va falsafaga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish va referat tayyorlash, muhokama qilish.

**18-mavzu:Konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli. (2 soat)**

**Reja:**

1. Konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli mavzusini o'rganishda Tohir Malikning "Quyoshingiz botmasin" nomli, Xadicha Kubro Tongarning "Baqirmaydigan onalar" va yoki shu mavzu doirasida talaba tanlagan psixologik adabiyotlar yuzasidan bahs-munozara o'tkazish.



**19-mavzu:Pedagogik konfliktologiyada mediasiya. (2 soat)**

**Reja:**

1.O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 iyul kuni O'RQ-482 -son "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni mazmunini o'rganish va mavzuga bog'lash yuzasidan referat tayyorlash.

**20-mavzu:Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar. Shaxs toifalari va ularning xislatlari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar. Shaxs toifalari va ularning xislatlarini psixologiya fani bilan bog'likda o'rganish va bahs-munozara tashkil qilish

**21-mavzu: Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarga nisbatan konstruktiv yondashuv va uni loyihalash. (2 soat)**

**Reja:**

1.Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarga nisbatan konstruktiv yondashuv mavzusini o'rganishda loyihalash metodidan foydalanish.

**22-23-mavzu: O'quvchilar va tengdoshlar orasidagi konfliktlar. (4 soat)**

**Reja:**

1. O'quvchilar va tengdoshlar orasidagi konfliktlarni aniqlash va mavzuga oid referat tayyorlash va muhokamasini o'tkazish.

## IV. Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar.

Mustaqil ta'lim – Pedagogik konfliktologiya fanidan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish, tizimli tahlil qilishga o'rgatish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - Pedagogik konfliktologiya fanidan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning m a'lum bir qismini talaba tomonidai fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar tavsiya qilingan adabiyot materiallarini qunt bilan o'rganib chiqishi, Pedagogik

konfliktologiyaga doir ma'ruza yoki referat tayyorlashi; amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash;
- Talabaning o'quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganishi kerak bo'ladi.

**Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik g'oyalarini o'rganish hamda tahlil etish. (Referat shaklida tayyorlanadi)
2. O'qituvchi va o'quvchining pedagogik hamkorligi - pedagogik konfliktlarni hal etish shakllaridan biri. (Esse shaklida tayyorlanadi)
3. Pedagogik qarama-qarshilik – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirish manbayi sifatida. ()
4.
5. Pedagogik konfliktlarining asosiy manbalarini (o'qituvchi va o'quvchilarning kundalik hayotini kuzatish asosida) aniqlash. Xulosalarni og'zaki va yozma bayon etish.
6. O'z guruhida konfliktli-stressli vaziyatlarni tahlil etish. (Referat tayyorlanadi)
7. Ijtimoiy-psixologik trening—konfliktli xulq-atvori korreksiyalash metodi sifatida.
8. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi konfliktli vaziyatlar profilaktikasi. (amaliy jarayonda olingan natijalar tahlili beriladi.)
9. Pedagogik konflikt evolyusiyasi muammosi. (Nazariy adabiyotlar tahlil etiladi)
10. Vaziyatni noto'g'ri idrok etish va uning oqibatlari.(Ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar tahlil etiladi)
11. Qiyin vaziyatga nisbatan sub'ektiv munosabat va uning mohiyati. (Referat tayyorlash)
12. Pedagogik jamoa strukturasi. (O'z jamoasining strukturasini tasvirlash yozma.)
13. Pedagogik konflikning yechimi va uni boshqarish texnologiyasi. (bahs-munozara shaklida)
14. Pedagogik konfliktning rivojlanish bosqichlari. (Yozma ma'lumot shaklida)
15. Shaxslararo koniliktlarni boshqarish sohasi va strategiyasining birligi. (referat shaklida)
16. Pedagogik faoliyatda muammoli vaziyatlar. (real voqealar asosida



chiqarilgan xulosalar yozma shaklda beriladi)

17. O'quvchilar o'rtasidagi konfliktli vaziyatlar. (referat shaklida)
18. Pedagogik muloqotning konfliktogenligi profilaktikasi. (esse shaklida)
19. Pedagogik takt. (pedagogika sohasidagi nazariyalar qiyosiy tahlil qilinadi, natijasi yozma shaklda taqdim etiladi)
20. Ta'limiy hamkorlik - pedagogik konfliktni yechishning samarali shakli. (tizimli tahlil asosida yozma xulosalar chiqarish)
21. Majburlamagan holda o'qitish. (psixologik adabiyotlar asosida referat tayyorlash)
22. Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat. (referat shaklida)
23. Bolaning bo'sh vaqti. (tajriba-sinov ishlari asosida)
24. O'qituvchining o'z ustida ishlashi va kamchiliklarini bartaraf etishi uchun psixologik testlar.(ochiq va yopiq testlar tayyorlash)
25. O'qituvchining ma'naviy dunyosi va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabati.(tizimli tahlil)
26. Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari.
27. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari. (referat shaklida)
28. Tashxislashning o'qituvchi kasbiy rivojlanishini ta'minlashdagi roli. (tajriba-sinov ishlari asosida)
29. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalashda pedagogik konfliktologiya fanining ahamiyati. (referat shaklida)
30. O'qituvchining o'z ustida ishlashi va kamchiliklarini bartaraf etishda psixologik testlarning roli haqida. (referat shaklida)
31. O'quvchilarga pedagogik-psixologik xizmat ko'rsatish orqali o'quv jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish. (tajriba-sinov ishlari asosida)
32. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarga nisbatan konstruktiv yondashuv va uni loyihalash. (tajriba-sinov ishlari asosida)
33. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda pedagogik hamkorlik. (referat shaklida)
34. Pedagogik nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish usullari. (tajriba-sinov ishlari asosida)
35. Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari. (adabiyotlar tahlili)
36. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlar va o'qituvchilar o'rtasidagi konfliktlar. (referat shaklida)

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni tayyorlash va taqdim qilish;<br>• individual loyihalar; |

| | |
|---|---|
| | • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 4 | **VI. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi zarur.<br>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.<br>Jami seminar mashg'ulotlar bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.<br>Oraliq nazorat. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi.<br>Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baxolanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibiga mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.<br>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabaalarga yakuniy nazorat topshirishga ruhsat beriladi.<br>Yakuniy nazorat. Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60 % ini (30ball) to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. |
| 5 | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent: Donishmand ziyosi., 2020., 304 b.<br>2. Shodmonova Sh. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiya. 2018., 369 b.<br>3. Nishonova Z. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2018., 600 b.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentinutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11<br>2. Конфликтология: Учеб. пособие / Н. И. Леонов. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2006. — 232 с. — (Серия «Библиотека психолога»)<br>3. Конфликтология. История. Теория. Практика: учебное пособие / А. С. Хохлов. – |



| | |
|---|---|
| | Самара: СФ ГБОУ ВПО МГПУ, 2014. – 312 с<br><br>**Axborot manbaalari**<br>https://www.scopus.com/home.uri<br>**springer nature**<br>**https://www.sciencedirect.com/**<br>www.natlib.uz |
| 7. | **Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>F.E.Ibragimova - JDPI, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti<br>M.P.Bakiyeva - JDPI, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari nomzodi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>D.S.Tursunov. – Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)<br>K.A.Abrorxonova –Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. |